



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
SAG'LIK BILIMLARI UNIVERSITETI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN EPIDEMIOLOGIYA,
MIKROBIOLOGIYA, YUQUMLI VA PARAZITAR KASALLIKLAR ILMIIY
– AMALIY TADQIQOT MARKAZI
SANKT-PETERBURG DAVLAT PEDIATRIYA TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**XALQARO ILMIIY – AMALIY KONFERENSIYA: “YUQUMLI
KASALLIKLAR VA ANTIMIKROB VOSITALAR”**

2023 yil 19-20 oktyabr

Birinchi ma'lumot xabari

**Maqola va tezislar qabuli 2023 yil 10 sentyabrgacha
Ma'ruzalar uchun arizalar qabuli 2023 yil 10 sentyabrgacha**

**Buxoro shahar
2023 yil**

Tashkiliy qo‘mita raisi:

**Rektor Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Direktori
Tesdaev Shuhrat Jumayevich**

Raislik qiluvchilar:

**Sağlık Bilimleri Üniversitesi Rektörü Prof. Dr. Cevdet Erdöl
Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va
parazitar kasalliklar ilmiy – amaliy tadqiqot markazi direktori Tadjiev B.M.
Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti rektori Ivanov D.O.**

Tashkiliy qo‘mita ishchi guruhi:

Ijrochi kotib:

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Davlatov Salim
Sulaymonovich**

Kotiblar:

Xudoydodova Sayyora Gafurjanovna +998934717917

Farmonova Maxtob Alimovna +998902983329

Elmuradova Aziza Azamatovna +998914177018

XALQARO KONFERENSIYANING ILMIY YO‘NALISHLARI:

- **Bakterial infeksiyalar;**
- **Virusli infeksiyalar;**
- **Tropik va parazitar infeksiyalar;**
- **Yuqumli kasalliklardagi immun buzilishlar;**
- **Qo‘zg‘atuvchilarning rezistentlik muammosi va ratsional antimikrob terapiya;**
- **Tizimli zamburug‘ kasalliklari;**
- **Zamonaviy epidemiologiya va mikrobiologiyaning dolzarb muammolari;**
- **Yuqumli kasalliklarning vaksinoprofilaktikasi.**

Manzil: O‘zbekiston respublikasi, Buxoro shahri, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.

Xalqari ilmiy-amaliy konferensiya materiallari «Tibbiyotda yangi kun» («Новый день медицине», «New day in medicine») jurnalida chop etiladi. Yuqoridagi bo‘limlar bo‘yicha har bir muallif 1 tadan ortiq bo‘lmagan maqola va 2 tadan ortiq bo‘lmagan tezislarni taqdim etishi mumkin. Maqola va tezislar bepul chop etiladi. Maqola va tezislar qabuli 2023 yil 10 sentyabrgacha, ma‘ruzalar uchun arizalar va ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish 2023 yil 10 sentyabrgacha amalga oshiriladi.

Konferensiyaning rasmiy tillari: o‘zbek tili, turk tili, rus tili, ingliz tili. Konferensiyada ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish bepul.

Konferensiyada ishtirok etishingiz bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlaringiz tashkiliy qo‘mita tomonidan qoplanmaydi.

Tezislar va jurnal maqolalarini qabul qilish bo‘yicha mas‘ul shaxslar:

1. Xudoydodova Sayyora Gafurjanovna

Tel.: +998934717917; E-mail: confbukhara2023@mail.ru

2. Elmuradova Aziza Azamatovna

Tel.: +998914177018; E-mail: confbukhara2023@mail.ru

Konferensiya doirasida ishtirokchilar o'rtasida uchta nominatsiya bo'yicha tanlov o'tkaziladi: eng yaxshi maqola, eng yaxshi ma'ruza va eng yaxshi plakat (poster doklad). Ishtirokchilar ishini maxsus komissiya baholaydi va uchta yo'nalish bo'yicha 1, 2 va 3 – o'rinlar bilan taqdirlanadi. G'oliblarga diplom va rag'batlantiruvchi sovg'alar topshiriladi.

TEZISLAR.

Tezislar topshirishning oxirgi muddati 2023 yil 10 sentyabr.

Tezislarni ro'yxatga olish uchun talablar: Tezislar quyidagi talablarga asosan tayyorlanishi kerak: matn Microsoft Word 2003 matn redaktorida, Times New Roman shriftida, 12 o'lchamda, 1,0 oraliq bilan, matn maydoni yuqori va pastdan 2,0 sm, chapdan 3,0 sm, o'ngdan 1,5 sm ko'rinishida yozilishi kerak. Tezis matni illyustratsiyalar, sxemalar, jadvallar, grafiklar va adabiyotlar ko'rsatkichlaridan xoli bo'lishi kerak.

Matnni qog'ozga joylashtirish:

1 - qator – tezis nomi (bosh harflar bilan)

2 - qator – muallifning F.I.SH.

3 - qator – ish bajarilgan muassasa, shahar, mamlakat nomi

4 - qator – tezis matni

Maqolalar. Maqolalar topshirishning oxirgi muddati 2023 yil 10 sentyabr.

Maqolalarni formatlash qoidalari.

1. Maqolada ish olib borilgan muassasa rasmiy yo'llanmasi bilan va rahbar vizasi bo'lishi kerak.

2. Asl maqolalar va sharhlar hajmi 10-12 betdan, qisqacha ma'ruzalar, amaliyotdan keltirilgan holatlar esa -3-4 betdan oshmagan holda, mashinkada yozilgan bo'lishi kerak.

3. Umumiy qabul qilingan so'zlardan boshqa so'zlarni qisqartirish taqiqlanadi. Dori vositalarini tavsiflashda xalqaro patentlanmagan nomidan foydalaniladi (MNN). Bemor tahlillari keltirilgan vaqtda, ish o'tkazilgan laboratoriyadagi normal ko'rsatkichlar qavs ichida keltirilishi kerak, masalan, umumiy xolesterin - 8,11 mmol/l (3,9-5,2 mmol/l).

4. Titul varog'i quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: 1. Shifr UDK; 2. Maqolaning sarlavhasi iloji boricha qisqa va informativ bo'lishi kerak. 3. Mualliflar F.I.SH.; 4. Tadqiqot ishi o'tkazilgan 5. Muallif tahririyati bilan bog'lanish uchun mas'ul bo'lgan shaxs: F.I.SH. to'liq, ilmiy daraja va unvoni, to'liq pochta manzili (pochta indeksi bilan), telefon raqami va e-mail.

5. Asl tadqiqotlardan iborat maqolalar bir biridan aniq ajratilgan quyidagi bo'limlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. 1. Qisqacha muammoning dolzarbligi (kirish); 2. «Tadqiqot maqsadi»; 3. «Material va usullar»; 4. «Natijalar»; 5. «Muhokama»; 6. «Xulosa». 4- va 5- bo'limlarni qo'shgan holda, «Natijalar va muhokamalar» deb yozsa ham bo'ladi.

6. Annotatsiya o'zbek, rus va ingliz tillarida sahifaning 1/3 qismidan ko'p bo'lmasligi kerak (xorijiy mualliflar uchun o'zbek tiliga tarjimai tahririyat

hisobidan amalga oshiriladi). Annotatsiyada maqolaning tuzilishi – kirish, maqsad va vazifalar, tadqiqot usullari, natijalar, xulosalar saqlanib qolishi kerak.

7. Annotatsiya ostida “Kalit so‘zlar” sarlavhasi, undan keyin esa o‘zbek, rus va ingliz tillarida 3 tadan 10 tagacha tayanch so‘z yoki iboralar joylashtiriladi.

8. Adabiyotlar ro‘yxati maqolaning oxirida alohida varaqda joylashtirilgan va matnda keltirilgan barcha ishlarning bibliografik tasvirini o‘z ichiga oladi (30-35 manbadan ko‘p bo‘lmagan).

9. Barcha illyustrativ materiallar (rasmlar, diagrammalar, fotosuratlar, jadvallar) faylda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan keyin joylashgan bo‘lib, “rasm” so‘zi bilan belgilanadi (jadvallardan tashqari) va raqamlanadi. Rasmlarda albatta sarlavhalari bo‘lishi kerak. Matnda kvadrat qavs ichida chizilgan tegishli rasimga havola bo‘lishi kerak. Jadvallar, grafiklar va diagrammalar Word muharririda qurilgan, o‘qlarda o‘lchov birliklari ko‘rsatilishi kerak. Chizmalar, fotosuratlar va rentgenogrammalarning elektron variantlari oq va qora rangda, jpeg formatida, kamida 300 ppi o‘lchamlari bilan taqdim etiladi.

Qo‘lyozma dizayniga qo‘yilgan texnik talablar: matn muhariri - Microsoft Word; Qog‘oz formati, yo‘nalishi - A4, knijnaya; Shrift - Times New Roman; shrift o‘lchami - 14 punkt; Satr oralig‘i 1,5; Matnni tekislash – kenglikda; Abzats chegarasi (qizil qator) – 1,0; Satrni raqamlash – pastgi, o‘ng.

Barcha taqdim etilgan ishlar ko‘rib chiqiladi. Tahririyat nashr etilgan materiallarni qisqartirish va jurnalning sarlavhalariga moslashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Ushbu qoidalarga muvofiq shakllanmagan maqolalar ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Boshqa nashrlarda chop etilgan yoki boshqa jurnallarda chop etish uchun yuborilgan ishlarni tahririyatga yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

POSTER DOKLADLAR. Ariza yuborishning oxirgi muddati – 10 sentyabr 2023 yilgacha.

Poster ma‘ruzada siz o‘tkazgan tadqiqot (mini tadqiqot) haqida umumiy ma‘lumotlar, olingan natijalarning tahlili taqdim etilishi kerak. Poster nafaqat chiroyli, balki, funksional ham bo‘lishi kerak. Og‘zaki taqdimot taxminan 5 daqiqa davom etishi kerak bo‘ladi. Plakat odatda Power Point dasturi yordamida tayyorlanadi.

Posterning formatlari: posterning o‘lchami – A1; shrift o‘lchami – 28 pt dan kichik bo‘lmasligi kerak; sarlavha; fon va matn ranglari bir biridan ajralib turishi kerak (oq fonda – matn qora rangli, to‘q ko‘k fonda – och sariq rangli matn va b.), matn o‘rtada emas chap tomonda tekislangan bo‘lishi kerak.

Poster tuzilishi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak: 1. Mavzuning maqsadi, dolzarbligi; 2. Tadqiqot savollari; 3. Metodologiya (tadqiqot ishtirokchilari, anketalar, intrvyular, fokus guruhlar, hujjatlar tahlili kabi tadqiqot vositalari); 4. Natija va tahlillar; 5. Xulosalar; 6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan tezis, maqola va posterlar ko‘rib chiqilmaydi.

Tezis, maqola va posterlar faqat Word matn muharririda tuzilgan ilova fayl sifatida confbukhara2023@mail.ru elektron pochta manziliga yuborilishi kerak (har bir tezis yoki maqola alohida fayl sifatida yuboriladi, unda birinchi muallifning familiyasi va ismining bosh harfi bo‘lishi talab qilinadi). “Mavzu” xabar maydonida “Konferensiya materiallari” ko‘rsatiladi.

Tezis va maqolalar faqatgina to‘ldirilgan ro‘yxatga olish kartasi (ilova) mavjud bo‘lgandagina qabul qilinadi va u ham bizning elektron manzilimizga tezis va maqolalar bilan birgalikda yuboriladi.

MA’RUZALAR. Ma’ruzalar uchun ariza topshirishning oxirgi muddati 10 sentyabr 2023 yil. Ma’ruzalar orqali qatnashish uchun arizalar (mualliflar soni ikki nafardan oshmasligi kerak) faqat confbukhara2023@mail.ru elektron manzili orqali tashkiliy qo‘mitaga yuborilishi kerak.

Konferensiyaga kelishingiz va ishtirok etishingiz (ma’ruza bilan chiqish) haqida Tashkiliy qo‘mitaga 2023 yil 1 oktyabrdan kechiktirmay xabar qilishingiz so‘raladi. (Просим о приезде и участии в конференции (выступление с докладом) сообщить оргкомитету не позднее до 01 октября 2023 года.

To‘planning elektron variantini BuxDTI saytidan yuklab olishingiz mumkin: www.bsmi.uz

Tashkiliy qo‘mita manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Navoiy 1.

Agar sizda savollar tug‘ilsa konferensiya tashkilotchilari bilan bog‘lanishingiz mumkin:

Yuqumli kasalliklar, bolalr yuqumli kasalliklari va epidemiologiya kafedrası:

Oblokulov Abdurashid Raximovich +99897-281-33-03

WhatsApp va Telegram +99890-635-04-44

Ilova

“Yuqumli va parazitlar kasalliklar diagnostikasi, davolash va profilaktikasining zamonaviy texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya tashkiliy qo‘mitasi ishtirokchining ro‘yxatdan o‘tish blankasini to‘ldirib, bizga yuborishingizni so‘raydi. “Yuqumli kasalliklar va antimikrob vositalar” xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyasida ishtirok etish uchun ariza

Buxoro 2323 yil 19 – 20 oktyabr.

Familiya	
Ism	
Otasining ismi	
Ish joyi (to‘liq)	
Lavozimi	
Ilmiy darajasi	
Ilmiy unvoni	
Ish manzili (indeks bilan)	
Kontakt telefoni:	
E-mail manzili:	
Maqola nomi (UDK ko‘rsatilgan holda)	
Tezis nomi	
Poster nomi	
Ma’ruza nomi	
Qatnashish turi	Qaysi shaklda qatnashishingizni ko‘rsating: 1. Shaxsan ma’ruza bilan qatnashish 2. Sirtqi qatnashish (faqat maqola yoki poster bilan).